

YUQORI SINIF O'QUVCHILARDA GLOBALASHUV SHAROITIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI RIVOJLANTRISH

Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instuti pedagogika va ijtimoiy

fanlar fakulteti magistri

myusupova917@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2026

Revised: 14.01.2026

Accepted: 15.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*globalashuv,
tolerantlik, tolerantlik
madaniyati, yuqori sinf
o'quvchilari,
ijtimoiylashuv, ta'lim
jarayoni*

Mazkur ilmiy maqolada globalashuv jarayonlarining ta'lim tizimiga ta'siri hamda yuqori sinf o'quvchilarida tolerantlik madaniyatining shakllanish va rivojlanish darajasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, UNESCO, BMT, YXHT, IHT kabi xalqaro tashkilotlarning dinlararo muloqotni rivojlantirishdagi o'rni, O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamkorlik tajribasi misolida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda tolerantlik tushunchasining nazariy asoslari, uning shaxs kamolotidagi o'rni, zamonaviy axborot muhitining o'quvchi yoshlar ongiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, empirik tadqiqot natijalari asosida pedagogik xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish

XXI asrda globalashuv jarayonlari jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi ta'lim tizimi oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda yuqori sinf o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv – bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir[1].

Buning asosiy natijasi – global mehnat taqsimoti, kapital, mehnat, ishlab chiqarish resurslarining dunyoviy miqyosdagi migratsiyasi (shuningdek, qoida tariqasida, konsentratsiya), qonunchilikni, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyati bir-biriga yaqinlashishi hamda birlashishidir. Globalashuv tizimli xususiyatga ega, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi obyektiv jarayondir. Globalashuv natijasida dunyo o'zining barcha subyektlari bilan bog'lanib, tobe bo'lib bormoqda. Bir guruh davlatlar uchun umumiy bo'lgan

muammolar sonining ko'payishi va birlashtiruvchi subyektlarning soni va turlarining kengayishi mavjud[4].

Asli tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din, millatlarga nisbatan bag'rikenglik va ehtiromli munosabatda bo'lish mezoni sifatida shakllanib kelgan. Chunki, tolerantlik urf-odat, madaniyat, qarash va mafkuralarga nisbatan xolis munosabat bildiradi, dunyo rangbarangligini tan oladi. O'zbekistonda tolerantlik tushunchasini diniy bag'rikenglik, tinch-totuvlik hamda hamjihatlilikda yashash tamoillariga ko'proq etibor berilgan. Ammo aslida tolerantlik juda keng tushuncha sifatida o'rta osiyoda rivojlangan tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.

Xalqimiz o'zining boy va uzoq tarixi davomida juda ko'p voqyea, hodisalarni boshidan kechirgan, bu o'z-o'zidan uning moddiy, ma'naviy madaniyatida, ijtimoiy iqtisodiy va ruhiy hayotida sezilarli iz qoldirgan. Tolerantlik va milliylikka shunday bir hodisa sifatida qarash kerakki, ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chish yoki joriy etish yo'li bilan, bir necha yilda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan, u tarix mahsulidir. Bu hodisalarning ildizini xalqimiz olis tarixining qaridan izlash lozim bo'ladi. Mamalakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqida shunday yozadi: "Agarki mendan, hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima ish qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglagan, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqyeligini ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga dahldor tuyg'usi bilan yonishi zarur, deb javob bergan bo'lardim".[7]

Hozirgi vaqtda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Yuqori sinf o'quvchilari shaxs sifatida ijtimoiy pozitsiyasi shakllanayotgan, dunyoqarashi kengayayotgan davrda bo'lib, ularning boshqa fikr va qarashlarga munosabati kelgusidagi fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilaydi.

Tolerantlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari

Ilmiy adabiyotlarda tolerantlik tushunchasi shaxsning ijtimoiy-psixologik sifatlaridan biri sifatida talqin etiladi. UNESCO ta'rifiga ko'ra, tolerantlik — bu boshqa millat, madaniyat, e'tiqod va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni tan olish va qabul qilishdir.[3]

=====

Buzg'unchilik deyarli barcha transsendent dinlarda qoralanadi. Jumladan, xristianlik dini va uning muqaddas kitobi bo'lgan Bibliyada "Insonning ichidan chiqadigan narsalar insonni harom qiladi.

Chunki ichdan, yani inson qalbidan yomon fikrlar, fahsh, o'g'irlik, qotillik, zino, makkorlik, shahvat, hasad, tuhmat, manmanlik, va nodonlik chiqadi. Ana shu yomonliklarning hammasi insonning ichidan chiqib, uni harom qiladi." Demak, bunday g'arazli fikrlar dinlararo muloqotni va tolerantlikni buzadi va jamiyat taraqqiyotiga hamda barqaror rivojlanishga halaqit beradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan tolerantlik madaniyati quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

kognitiv komponent (bilim va tushunchalar);

emotsional-kommunikativ komponent (hurmat, empatiya);

xulq-atvor komponenti (murosaga tayyorlik, muloqot madaniyati).

Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi shaxsning tolerantlik darajasini belgilaydi.

Globalashuv sharoitida tolerantlik madaniyatining dolzarbligi

Globalashuv sharoitida o'quvchilar turli axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy ta'sirlarga duch kelmoqda. Bu holat bir tomondan ularning bilim doirasini kengaytirsa, ikkinchi tomondan qarama-qarshi g'oyalar, stereotiplar va ijtimoiy ziddiyatlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu bois ta'lim muassasalarida:

madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;

tanqidiy fikrlashni shakllantirish;

ijtimoiy bag'rikenglikni targ'ib etish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

diagnostik so'rovnoma;

anketa va testlar;

pedagogik kuzatuv;

statistik tahlil.

Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroning manfaatlari, haq-huquq va burchlari qonunimiz doirasida aniqlanib, belgilab qo'yilgan. Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'i nazar ularning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini e'tirof etmog'i lozim. Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston hududi qadimdan diniy bag'rikenglik borasida dunyoga namuna bo'lib kelgan.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablarining 9–11-sinf o'quvchilari tanlab olindi. Tadqiqot predmeti esa yuqori sinf o'quvchilarida tolerantlik madaniyatining rivojlanganlik darajasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

o'quvchilarning ma'lum qismi tolerantlik tushunchasini ijobiy baholaydi;

ayrim o'quvchilarda esa ijtimoiy stereotiplarga moyillik mavjud;

sinfdan tashqari tadbirlar va ijtimoiy fanlar tolerantlik madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Natijalar tahlili tolerantlik darajasining oilaviy tarbiya, maktab muhitining ijtimoiy-psixologik holati hamda ommaviy axborot vositalari ta'siriga bevosita bog'liqligini ko'rsatdi.

Pedagogik shart-sharoitlar va tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ta'lim jarayoniga tolerantlikka yo'naltirilgan interaktiv metodlarni joriy etish;

Munozara va muammoli vaziyatlar asosida darslarni tashkil etish;

O'quvchilarda media savodxonlikni rivojlantirish;

O'qituvchilarning tolerantlik madaniyati bo'yicha metodik tayyorgarligini oshirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globalashuv sharoitida yuqori sinf o'quvchilarida tolerantlik madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan, tizimli va uzluksiz pedagogik faoliyatni talab etadi. Tolerantlik madaniyatiga ega bo'lgan shaxs jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-6445145> (Qonunchilik 01.05.2023-y. 03/23/837/0241-son)
2. UNESCO. Tolerance and Education.
3. Globalashuv va ta'lim muammolariga oid ilmiy maqolalar.
5. Usmonova M. D., Ibrohimova G. A. EDUCATION OF CULTURE OF TOLERANCE IN A NATIONAL CHARACTER //Psixologicheskoye zdorovye naseleniya kak vajnyy faktor obespecheniya prosvetaniya obshchestva. – 2020. – S. 174-176.
6. Usmonova M. D., Parpiyev O. A. PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL HEALTH IN EDUCATION //Psixologicheskoye zdorovye naseleniya kak vajnyy faktor obespecheniya prosvetaniya obshchestva. – 2020. – S. 287-289.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008 [7]
8. [https://uz.wikipedia.org\[1\].\[4\]](https://uz.wikipedia.org[1].[4]).